

YOSHLARNI KASBGA YO‘NALTIRISHNING MUHIM VAZIFALARI

Rustamova Dilnoza Xayotovna*Qashqadaryo viloyati Muborak tumani MMTB ga qarashli 1-umumiy o‘rta talim maktabi kasb-hunarga yo‘naltiruvchi psixologi***Muhammadiyeva Gulnoza Egamnazar qizi***Qashqadaryo viloyati Muborak tumani MMTB ga qarashli 35-umumiy o‘rta ta’lim maktab amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar tahlil etilgan bo‘lib, bu jarayonda o‘qituvchining pedagogik mahorati, kasb tanlashga oid bilim va ko‘nikmalari, vazifalari, shuningdek kasb tanlashda shaxs hislatlari, o‘quvchi psixologiyasi, o‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko‘rsatuvchi mezonlar mazmuni haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: kasb, layoqat, jamiyat, malaka, ko‘nikma.

KIRISH

Jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi – bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellekt va ahloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta’limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta’limni rag‘batlantirish muhim yo‘nalish sifatida kelmoqda.

Pedagogning kasbiy layoqatliligini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilishga bir qator olimlarning ishlarida o‘z ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik – ishonchlilik sifatleri bilan birgalikda o‘qituvchining kasbiy – individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrni olg‘a surganlar.

O‘z navbatida, kasbiy layoqatlilik tushunchasi, V.A.Slastenin ta’kidlaganidek, pedagogning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy hamda amaliy tayyorligining birligini ifodalaydi va uning kasbiy shakllanganligini tavsiflaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida insonlarning yaxshi yashashida, faoliyatida to‘g‘ri kasb tanlashning ahamiyatini turli xil kasblarning insonga qo‘yadigan talablarini; kasblar olami, kasblar shajarasi, O‘zbekiston xalq xo‘jaligidagi muhim kasblar, kasblar tasniflagichi; kichik mutaxassislar tayyorlash tizimi; kasblar, mehnat shartsharoitlari, vositalari, fani, maqsadi bo‘yicha shajaralanishi, o‘quvchilarni o‘z qiziqish va moyilliklari, o‘z xarakterining o‘ziga xos xususiyatlarini, o‘z nerv tuzilishi, psixikasi, o‘z qobiliyati va ehtiyojlarini kasblar to‘qrisida ma’lumot olish maktablarini ayrim kasb mehnat bozori talablari asosida ehtiyojning o‘zgarib borishini, salomatligining tanlagan kasbga mos kelishi, hududda joylashgan o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv

yurtlarida ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlashi; o'qishni davom ettirish imkoniyatlari. Kelgusi mavqeini bilishi zarur.

Kasbni to'g'ri tanlash har bir maktab o'quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'lig'ini, o'zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'proq qaror topadi va namoyon bo'ladi. Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo'lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbga zo'r qiziqish bilan qarasa, o'z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o'shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo'ladi, bunday hoolda har bir shaxs jamiyatga eng ko'p naf keltiradi.

Mana shu aytgan gaplardan kasb tanlashning g'oyat muhim ijtimoiy ahamiyati kelib chiqadi. Kasb-korni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega. Odam shug'ullanayotgan ishini yaxshi ko'rsa, bundan u xursand bo'ladi, qoniqish hosil qiladi, zo'r tashabbus ko'rsatadi, toliqmay mehnat unumini oshiradi. Maktab o'quvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo'lishi va ayni vaqtda jamiyat manfaatlariga mos bo'lib tushishi, yigit va qizlarning kamolot yo'lida shaxsiy mudaolarini qondirishi lozim. Buning uchun yuksak darajada ma'lumotli bo'lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma'lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas. Umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishning bunday imkoniyatlari ob'ektiv zaminga ega bo'lib, voqelikda har kuni amalda oshirilmoqda.

Sanoat tez rivojlanganligi, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish borasida katta qadamlar qo'yilganligi, ilm-fan, texnikani va madaniyatni yuksaltirish sohasidagi muvaffaqiyatlar bir tomondan, yoshlarning qiziqishlariga va qobiliyatlariga muvofiq, ikkinchi tomondan xalq xo'jaligi talab-ehtiyojlariga asosan kasb tanlashlari uchun amaliy jihatdan cheklanmagan imkoniyatlar yaratdi; umumiy ta'lim maktabida mehnat poletexnika ta'limi sharoitida kasbga yo'naltirish muammosini ijobiy hal qilish uchun barcha shart-sharoitlar vujudga keltirildi. Kasbga yo'naltirish o'quvchilarga politexnik ma'lumot berish masalalari bilan, kasb tanlash esa muayyan bilim darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

O'z-o'zidan ma'lumki, bunga o'qitishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, bilimlarni, ilm-fan asoslarini, ayniqsa ijtimoiy foydali va unumli mehnat bilan chambarchas bog'langan mehnat politexnik bilimni chuqur va mustahkam egallash natijasidagina erishish mumkin. Har qanday kasbda eng muhimi - uning mehnat mazmuniga ega bo'lishidir. SHu boisdan mehnatsevarlikni, yaxshi urf-odatlarini tarbiyalash va ularni mehnat jo'shqinligiga ko'chirish bolalarni kasb tanlashga tayyorlashning bosh negizidir.

O'quvchini kasbga to'g'ri yo'naltirish muhim va mashaaqqatli vazifa. Bunda ota-onaga birinchi navbatda pedagoglar yordamchi hisoblanadi. Chunki bolaning

iqtidori ota-onadan ko'ra pedagogga ko'proq namoyon bo'ladi. Pedagogda bolaning iqtidorini xolis ko'ra olish imkoniyati ko'p. Qolaversa, uning boshqa o'quvchilardan ajralib turuvchi xususiyatlarini ilg'ash, undagi ilm va salohiyatni alohida baholay olish imkoni mavjud. O'quvchining qiziqishlarini rad eta olish va uning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda boshqa sohaga yo'naltira olish ham muhim sanaladi. Bunda o'qituvchidan ziyraklik va kuzatuvchanlik talab etiladi. O'quvchi harbiy bo'lmoqchi, lekin unda aniq fanlarga yoki tabiiy fanlardan bilimi boshqa bolalardan ko'ra yuqori. Shuni inobatga olib bolani harbiy vrachlikka, hisob-kitob bilan bog'liq harbiy sohaga yo'naltirish mumkin. Bola shifokor bo'lmoqchi, lekin unda texnika va axborot resurslariga qiziqishi baland. Uni ham aynan tibbiyotning bevosita kompyuter bilan boshqariladigan tarmoqlariga yo'naltirish zarur bo'ladi. Bunda o'qituvchi o'quvchidan tezda qiziqishi va kelajakdagi orzusi bilan o'rtoqlashib turishi kerak. O'quvchini qiziqishlaridan tashqari yana boshqa yuqori imkoniyatlaridan o'zini ham xabardor etib turishi zarur. Bu esa bolada to'g'ri kasb tanlashda muhim vazifa sanaladi. Evolyutsion taraqqiyot davom etar ekan, yangidan-yangi kasblar paydo bo'ladi. Shu o'rinda kasblar ham eskiradi. Davr taqazosi bilan ayrim kasblarga bo'lgan ehtiyojlar kamayadi, yoki butunlay kasblar unutiladi. Masalan, fan va texnika taraqqiy etgan, xat va maktublar turli ko'rinishda egasiga yetkaziladigan bir paytda pochta kasbiga deyarli ehtiyoj kam. Sezgir o'qituvchi bolalarni davr bilan hamnafas holda, sinchkovlik bilan to'g'ri kasbga yo'naltira olishi kerak. O'quvchilarni kelajakda kam ehtiyoj seziladigan sohalarga yo'naltirishda ehtiyot bo'lish kerak. Chunki bolaning tanlagan kasbi unga butun umr hamroh bo'ladi. O'quvchi tanlagan kasb kelajakda esa, avvalo, jamiyat taraqqiyoti uchun ham manfaatli bo'lishi zarur.

XULOSA: Xulosa o'rnida, oilada bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash odatda maktabgacha bo'lgan yoshdan boshlanadi. Ana shu paytdan e'tiboran bolalarni bo'lg'usi kasbni tanlashga tayyorlash amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini muntazam ravishda o'rganish zarur. Kasb tanlashda xato qilmaslik uchun bolalarga avvalo maktab va oila yordam berishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish kontseptsiyasi. –Toshkent: O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi. 2002. 12 b.
2. Boltaboev S.A. Tolipov O'.Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablari kasbga yo'naltirish o'quv-metodika kabineti faoliyatini tashkil qilish bo'yicha metodik tavsiyanoma. –Toshkent: TDPU, 2000. 36 b.
3. Davletov K.D. va b. O'quvchi yoshlarni ishga va ishlab chiqarishga tayyorlash. - T.: O'qituvchi, 1984. 167 b.

4. Jo'raev R.X., Tolipov O'.Q., SHaripov SH.S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Monografiya. -T.: FAN. 2004. 120 b.

